



FORMATION AND DEVELOPMENT OF THE LEGAL FRAMEWORK OF CIVIL SOCIETY

Dilfuzakhon Mamadjonova

lecturer

Fergana State University

Uzbekistan, Fergana

ABOUT ARTICLE

Key words: law, civil society, legal consciousness, legal culture, modernization, human interests, social activism, Democratic state.

Received: 26.12.24

Accepted: 28.12.24

Published: 30.12.24

Abstract: we are witnessing the intense socio-political processes in the renewing Uzbekistan. The analysis of the content and essence of these processes shows that the emphasis on the development of civil society by the state and further increasing the role and prestige of NGOs in this area is gaining momentum. In other words, it is observed that the state is increasing in its responsibility to develop the future image of civil society and to attract all institutions of civil society and citizens in its construction. In this regard, the state is working to consolidate efforts in improving the well-being of the population, develop and practice effective mechanisms, methods and tools that represent the needs of the state and the general population, meet the interests of various public organizations.

FUQAROLIK JAMIYATINING HUQUQIY ASOSLARINI SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

Dilfuzaxon Mamadjonova

o'qituvchi

Farg'ona davlat universiteti

O'zbekiston, Farg'ona

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: huquq, fuqarolik jamiyati, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, modernizatsiya, inson manfaatlari, ijtimoiy faollik, demokratik davlat.

Annotatsiya: Yangilanayotgan O'zbekistonda ijtimoiy-siyosiy jarayonlar shiddat bilan kechayotganini guvohi bo'lib turibmiz. Bu jarayonlar mazmun-mohiyatining tahlili davlat tomonidan fuqarolik jamiyatini rivojlantirish va bu sohada nodavlat notijorat

tashkilotlari rolini va nufuzini yanada oshirishga bo'lgan e'tibor borgan sari kuchayib borayotganligini ko'rsatmoqda. Boshqacha qilib aytganda, davlat fuqarolik jamiyatining kelajak qiyofasini ishlab chiqish va uni barpo etishda fuqarolik jamiyatining barcha institutlari hamda fuqarolarni jalb etish uchun mas'uliyati oshib borayotganligi kuzatilmoqda. Bu borada davlat aholi farovonligini oshirishda sa'y-harakatlarni birlashtirish, davlat hamda keng aholi ehtiyojlarini ifodalaydigan, turli jamoat tashkilotlari manfaatlariga javob beradigan samarali mexanizmlarni, usul va vositalarni ishlab chiqib, ularni amaliyotda qo'llash borasida faoliyat olib bormoqda.

ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ ПРАВОВЫХ ОСНОВ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА

Дилфузахон Мамаджонова

преподаватель

Ферганский государственный университет

Узбекистан, Фергана

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: право, гражданское общество, правосознание, правовая культура, модернизация, интересы человека, социальная активность, демократическое государство.

Аннотация: мы являемся свидетелями бурных социально-политических процессов в обновляющемся Узбекистане. Анализ содержания этих процессов свидетельствует о все возрастающем внимании со стороны государства к развитию гражданского общества и дальнейшему повышению роли и престижа НКО в этой сфере. Иными словами, наблюдается растущая ответственность государства за вовлечение всех институтов гражданского общества, а также граждан в разработку и построение будущего образа гражданского общества. В связи с этим государство осуществляет деятельность по консолидации усилий по повышению благосостояния населения, разработке и применению на практике эффективных механизмов, методов и инструментов, представляющих потребности государства и населения в целом, отвечающих интересам различных общественных организаций.

KIRISH

Mustaqillikka erishganimizdan keyin bozor iqtisodiyotiga asoslangan mustaqil demokratik davlat barpo etish, inson manfaatlari, huquq va erkinliklari, qonun ustuvorligi hamda mamlakatimiz barcha fuqarolari uchun qonun oldida tenglik ta'minlanadigan fuqarolik jamiyatini shakllantirish strategik maqsad sifatida belgilangan.

Fuqarolik jamiyati institutlari inson huquqlarini ta'minlash va himoya qilish, aholining huquqiy va inson huquqlari borasidagi madaniyatini oshirishda muhim o'rin tutadi.

Bugungi kunda fuqarolik jamiyatiga eng muhim konstitutsiyaviy- huquqiy kategoriya sifatida qarash lozim. Fuqarolik jamiyati g'oyasining konstitutsiyaviy darajada tan olinishining o'zi ko'p jihatdan ramziy ma'noga ega. Fuqarolik jamiyatining o'rni tobora ortib borayotganini hisobga olgan holda, davlatning asosiy Qonuniga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mutaxassislarning fikricha, fuqarolik jamiyati kontseptsiyasining konstitutsiyaviy jihatdan mustahkamlanishi "fuqarolik jamiyati"ning maqomini yanada oshiradi. Ayni damda "fuqarolik jamiyati" – konstitutsiyaviy davlatning ajralmas atributi (uning maqsadi) hisoblangan ijtimoiy jamiyatning ideal standarti ekanligini ta'kidlash muhim.

ASOSIY QISM

Fuqarolik jamiyatining huquqiy asoslari shallanishi uchun avvalo fuqarolarda quyidagi tushunchalar haqida tushunchaga ega bo'lishlari lozim:

Huquqiy madaniyat – kishilarning huquqiy bilim darajasi, huquqqa nisbatan ongli munosabat, huquqni hurmat qilish va unga rioya qilishni ifodalovchi atama. Huquqiy madaniyatni takomillashtirish uchun barcha fuqarolarning siyosiy, huquqiy ongini o'stirish, dunyoqarashini kengaytirish, ma'naviyatini yuksaltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Huquqiy madaniyat makon va zamonda farqlanib, hozirda va istiqbolda amalga oshirilishi lozim bo'lgan manfaatlar ko'lami bilan o'lchanadi. Huquqiy madaniyat insonning bilim va tajribalari orqali narsa va hodisalarni, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni, ularning mazmun-mohiyatini anglash, to'g'ri yoki noto'g'riligini farqlash va shu asosida xulosa chiqarish imkonini beradi.

Huquqiy ong – huquqshunoslik, falsafa sohalariga oid kategoriya; huquqiy hodisalarni aks ettiruvchi, huquqiy qadriyatlarni anglash, zarur huquqiy tartibni saqlash bilan bog'liq ijtimoiy guruh va individual ongga mansub tushuncha. Huquqiy ong jamiyat hayotining ijtimoiy-iqtisodiy, uning madaniy-huquqiy, siyosiy shart-sharoitlari bilan tavsiflanadi. Huquqiy ong – ijtimoiy va individual ongga tegishli bo'lgan, huquqiy bilimlarni o'z ichiga olgan g'oyalar majmui. Huquqiy ong bilish, baholash va tartibga solish vazifalarini bajaradi. Huquqiy ong jamiyat hayotida sodir bo'ladigan voqea-hodisa, shaxs ongida huquqiy normalarning shakllanishi va takomillashuvini ifoda etadi. adaniyatning bir turi sifatida ko'riladi.

Huquqiy tarbiya – jamiyat a’zolari madaniyati va ongiga huquqiy bilimlarni turli ta’sir vositalari orqali uzluksiz singdirib borish jarayonini ifodalovchi tushuncha. Huquqiy tarbiya vositalariga huquqiy targ‘ibot, huquqiy ta’lim va amaliyot, o‘zini o‘zi tarbiyalash kiradi. Huquqiy tarbiya keng ma’noda, jamiyat a’zolarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirish, shaxs ongiga uning huquq va burchlarini singdirish jarayonini anglatadi. Huquqiy tarbiya tor ma’noda fuqarolarning huquqiy bilim va madaniy saviyasi darajasini oshirishga xizmat qiladigan usul va vositalarni ifoda etadi. Huquqiy tarbiyaning davlat va jamiyat taraqqiyotida hamda fuqarolik jamiyati asoslarini qurishdagi o‘rni shaxsning, fuqarolarning huquqiy bilimi va ko‘nikmalari darajasi bilan belgilanadi. Huquqiy tarbiya mavjud tuzum, davlat va hokimiyat organlari, mahalla, oila, tashkilotlar va ularning faoliyati orqali amalga oshadi. Huquqiy tarbiya ko‘p qirrali va murakkab jarayon hisoblanib, uning muammolari huquqshunoslik, pedagogika va psixologiya, milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari, etika va estetika kabi fanlar doirasida tadqiq etiladi. Huquqiy tarbiya samaradorligi oila, mahalla, ta’lim-tarbiya muassasalarining ma’naviy-ma’rifiy sohadagi faoliyatining o‘zaro uyg‘un holda amalga oshirilishi bilan belgilanadi.

“O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini qurish jahon davlatchiligining ilg‘or tajribalari va ko‘p ming yillik milliy an‘analarning tahlili sifatida dunyoga kelmoqda. Ya’ni erkinlik va axloq, ozodlik va tarbiya, qonunga itoatkorlik va siyosiy–huquqiy faollik, hurriyat va qat’iy tartib–intizom uyg‘unligida fuqarolik jamiyati shakllantirilmoqda”[1]. Fuqarolik jamiyatida erkinlik, qonunning ustuvorligi, ijtimoiy adolatning ta’minlanishi, hamma fuqarolarning ijodiy salohiyati va iste’dodining bevosita ro‘yobga chiqarilishiga imkoniyat yaratiladi. “Mustaqil taraqqiyot yillarida Konstitutsiyamiz rortimizda huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati, erkin bozor munosabatlari va xususiy mulk ustuvorligiga asoslangan iqtisodiyotni qurish, xalqimiz uchun tinch, obod va farovan hayotni barpo etish, O‘zbekistonning xalqaro maydonda munosib o‘rin egallashida mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda”[2].

Fuqarolik jamiyati tushunchasi – kishilik jamiyatining asrlar mobaynida shakllangan tafakkur mahsuli bo‘lib inson huquqlari va erkinliklarining holati bilan belgilanadi. Fuqarolik jamiyatining poydevorini yaratish va uni amalda shakllantirish uchun avvalo u haqdagi g‘oyalar genezisini, asoslarini bilish lozim. Fuqarolik jamiyati ma’lum asoslar (iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, ma’naviy) yaratilgandagina shakllanishi mumkin. Bular quydagilardan iborat:

iqtisodiy asos - shaxs va jamiyat manfaatlarining umumiyligiga asoslangan mulk shakllarining xilma-xilligi, iqtisodiy pluralizm, ko‘p ukladlilik, erkin bozor munosabatlari. Qaysikijamiyatda uning har bir a’zosi, qandaydir mulkka ega bo‘lishi, o‘z xohishi bilan tasarruf etish, sarflash huquqiga ega bo‘lishi, xususiy mulk daxlsizligi, davlat tomonidan kafolatlangan tadbirkorlik, mexnat va iste’mol faoliyati erkinligining ta’minlanganligi;

ijtimoiy-siyosiy asos – mustaqil davlatlarning tashkil topishi, iqtisodiy va siyosiy hokimiyatning ajratilishi. Insonlarning o'z maqsadlarini himoya qilish maqsadida ma'lum tashkilotlarga birlashishi. Hokimiyatlar turli-tuman markazlar, tashkilotlar, siyosiy institutlar qo'lida jamlangan bo'lsa, ular bir-birini cheklaydi va muvozanatga solib turadi. Siyosiy pluralizm, davlat hokimiyati funktsiyalarining sekin-asta fuqarolik jamiyati institutlariga berib borilishi;

huquqiy asosi – inson uchun ahamiyatli bo'lgan ozodlik, tenglik, adolat qadriyatlarining qaror topishi iuridik tenglikning ta'minlanishi va ularga huquq va erkinliklar berish orqali qonun yo'li bilan tan olinishi;

ma'naviy asos – insonlar o'z qadr-qimmatiga, jamiyatning asosiy qadriyatlari himoyasiga tura oladigan zaruriyat tug'ilganda ular uchun kurasha oladigan bo'lishlari, vijdon erkinligi, ahloqiy normalarga rioya qilish, yagona mafkura dunyoqarashning yakka hokimligining mavjud emasligi, ijtimoiy jarayonlarni demokratlashtirishda bevosita va bilvosita ishtirok etishlari, fuqarolik pozitsiyasiga ega ekanligi.

O'zbekistonda yangi jamiyatni rivojlantirish islohotlari jarayonida jahondagi turli mamlakatlarda fuqarolik jamiyati asoslarining yaratilishi turli darajada va davrlarda amalga oshirilganligining nazariy va amaliy jihatlarini, tajribalarini o'rganish muhim ahamiyatga egadir. Chunki, fuqarolik jamiyatining bu progressiv jihatlarini (tamoyillari va belgilarini) sinalgan tajriba sifatida o'tish davrini o'z boshidan kechirayotgan mamlakatlarda fuqarolik jamiyati qurishda e'tiborga olishga imkon beradi. Shu nuqtai nazardan fuqarolik jamiyati fanini oliy ta'lim tizimida o'qitish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Professor A.Muminovning fikricha: "Yangi O'zbekistonni barpo etishning hozirgi bosqichida fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning muhim shartlaridan biri, fuqarolar bilan doimiy muloqot, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar haqida ularning fikrlarini olishdan iborat. Bu borada, so'nggi uch yilda qabul qilingan qonun hujjatlari va Davlat dasturlari jamoatchilik muhokamasiga qo'yilib, so'ngra qabul qilinganligini aytish zarur. Binobarin, davlat va jamiyat ahamiyatiga molik bunday hujjatlarni tayyorlashda butun mamlakat fuqarolarining qiziqishlari to'la inobatga olinishini ta'minlash uchun aholi o'rtasida keng muhokamalar tashkil etish, doimiy ravishda xalq bilan muloqot qilish taqozo etiladi"[3]. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati qurishning asosiy strategik maqsad sifatida e'lon qilinishi – bu undagi hayot tarzi va insoniy o'zaro munosabatlarni inson manfaatlariga, o'z-o'zidan milliy manfaatlariga mosligi, har bir insonni erkinligi va huquqlarini amalga oshirishga qulay va har tomonlama shart-sharoitlar yaratib berishi, bu holatni esa mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan taraqqiy ettirishga bo'lgan kuchli ta'sirini e'tiborga olish bilan chambarchas bog'liqdir.

Huquqiy davlat – davlat tuzilishi va faoliyatining huquqqa asoslangan fuqarolik jamiyatining siyosiy shakli bo'lib, jamiyat hayotida demokratik institutlarning rivoj topishi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish tizimi mavjudligi bilan tavsiflanadigan, inson huquq va manfaatlarini

ustuvor ta'minlaydigan davlatdir. Huquqiy davlatda quyidagi printsiplar asosida faoliyat yuritish va unga amal qilish shart hisoblanadi:

- xalq suvereniteti;
- shaxsning huquq va erkinliklarining hech kim, shu jumladan, davlat tomonidan ham har qanday holda buzilmasligi;
- Konstitutsiya va qonunning ustunligi;
- hokimiyatning bo'linishi tamoyiliga amal qilish;
- sudlarning mustaqilligi;
- xalqaro huquq normalarining milliy huquq normalaridan ustun bo'lishi.

Huquqiy davlatda huquq normalariga binoan va ular doirasida ish olib boriladi. Huquqiy davlatni fuqarolik jamiyatining rivojlanish natijasi, yanada takomillashtirilishi deb qarash mumkin. Etuk fuqarolik jamiyatisiz huquqiy davlat qurib bo'lmaydi

XULOSA

Fuqarolik jamiyati shakllangan mamlakatlarda nafaqat inson erkinligi, davlatning jamiyat uchun xizmat qilish mas'uliyatining roksakligi, o'zini o'zi boshqarishning avj olishi kabi qadriyatlarga amal qilinadi, bu jamiyatlarda inson farovonligini har tomonlama ta'minlash sohasida ham mislsiz natijalarga erishiladi. Jahondagi mamlakatlar o'rtasida yalpi milliy mahsulotning o'rtacha kishi boshiga taqsimlanishida ham fuqarolik jamiyati rivojlangan mamlakatlar peshqadamlik qilmoqda. Buning asosiy sababi shundaki, inson siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy erkinliklar bag'ridagina o'zining yaratuvchanlik qobiliyatini to'liq namoyon qila oladi.

Darhaqiqat, O'zbekistonda tub o'zgarishlar jarayonlaridagi davlatning bosh islohotchilik o'rni asosan fuqarolik jamiyatining huquqiy asoslarini shakllantirish jarayonlarida namoyon bo'ldi. Mamlakatda nodavlat notijorat tashkilotlar mustaqilligini ta'minlash, shuningdek, ularning fuqarolik jamiyatining muhim institutiga aylanishini ta'minlash maqsadidavlatning «Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari» kontseptual siyosiy dasturi qabul qilindi va u mamlakatda jamiyatni rivojlantirishning asosiy tamoyiliga aylandi.

Adabiyotlar:

1. Абдурахманова, Ж. Н. (2022). ХУҚУҚИЙ ДАВЛАТ ВА ФУҚАРОЛИК ЖАМИЯТИНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ, ФУНКЦИЯЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 3(TSTU Conference 2), 540-546.
2. Gapparovna, S. D., & Toshpulatovna, X. P. (2021). IMPROVING THE QUALITY OF MEDICAL SERVICES IN IMPROVING THE GENE POOL OF THE POPULATION IN OUR COUNTRY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(10), 138-141.
3. Муминов, А. Г. (2022). ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ФУҚАРОЛИК ЖАМИЯТИНИНГ ХУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ ТАКОМИЛЛАШТИРИЛИШИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 23), 404-413.

4. Tadjixanov U., Saidov A. Huquqiy madaniyat nazariyasi. Darslik. 2 tomli. 1-tom / Mas'ul muharrir akademik Sh.Z.Urazayev. Toshkent, 1998.
5. M.Bekmurodov. Madaniyat sotsiologiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2010.
6. X.T.Mamatov. Huquqshunoslik. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2016.
7. Мамажонова, Д. (2022). Конституциявий ислохотлар—халқ манфаатининг асосий мезони. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10), 688-693.